

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

- 2) Ziegler, P., Adelman, K., Zimmer, S., Schmidt, C., & Appenroth, K. J. (2015). **Relative in vitro growth rates of duckweeds (Lemnaceae)–the most rapidly growing higher plants.** Plant Biology, 17(S1), 33-41.
- 3) Cheng, J., & Stomp, A. M. (2009). **Growing duckweed to recover nutrients from wastewaters and for production of fuel ethanol and animal feed.** Clean: Soil, Air, Water, 37(1), 17-26.
- 4) Vymazal, J. (2010). **Constructed wetlands for wastewater treatment.** Water, 2(3), 530-549.

LINGUISTIK STRATEGIYALAR VA AXLOQIY QADRIYATLAR: AQSH VA O‘ZBEKISTONDA OILAVIY TARBIYANING MUQADDAS MATNLAR ASOSIDAGI MADANIYATLARARO TAHLILI.

To‘qsanova Sayyora Sulaymonqulovna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

akademik litseyi ingliz tili fani o‘qituvchisi

Sayyora.tuksanova@yandex.ru | +998 97 807 17 18

Annotatsiya : *Ushbu maqolada O‘zbekiston va Qo‘shma Shtatlar kabi ikki madaniyatga oid jamiyatlarda bolalarning axloqiy tarbiyasida muqaddas matnlar orqali qo‘llaniladigan lingvistik strategiyalar o‘rganiladi. Muqaddas manbalarga tayangan holda, ota-onalar tomonidan axloqiy qadriyatlar – halollik, sabr, hurmat, mehr-muruvvat kabi tushunchalarning farzandlarga qanday yetkazilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu strategiyalarning madaniyatlararo umumiyliklari va farqlari ko‘rib chiqilib, muqaddas matnlarning til orqali axloqiy ongni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopragmatika, tarbiya, qadriyatlar, din, matnshunoslik, multimadaniyat, muqaddaslik, diskurs, akslantirish, sosializatsiya.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va uyg‘unlik insonning axloqiy shakllanish jarayonida ham bevosita namoyon bo‘lmoqda. Xususan, oiladagi tarbiya jarayonida muqaddas matnlarning til vositasi sifatidagi o‘rni tobora kuchayib bormoqda. Diniy manbalar, ayniqsa Qur’on, Bibliya, Injil, insoniy fazilatlar — halollik, sabr, vafodorlik, rahm-shafqat, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni singdirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir madaniyatda bu qadriyatlar turli lingvistik strategiyalar orqali bolalarga yetkaziladi va ularning ongida mustahkamlanadi. Bu borada taniqli tilshunos va sotsiolog Basil Bernstein o‘zining til va ijtimoiy tuzilma haqidagi tadqiqotlarida shunday deydi: “Til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy nazorat va axloqiy tashkiliy kuchdir. Ayniqsa, diniy til oilada

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

axloqiy intizomni shakllantirishda vositachilik qiladi.” (Bernstein, 1971) 84. Shuningdek, amerikalik olim James Paul Gee esa muqaddas matnlarni “axloqiy diskurs” deb atab, ularning bolalarga jamiyatda qanday tutumda yashash kerakligini o‘rgatishini ta’kidlaydi (Gee, 1996)85.

Ushbu maqola O‘zbekiston va AQSh misolida muqaddas matnlar asosida axloqiy tarbiya berishning lingvistik jihatlarini taqqoslamali tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — har ikki jamiyatda bolalarni tarbiyalashda diniy nutqning o‘rni, uslubi va samaradorligini o‘rganish, madaniyatlararo umumiyliklar va farqlarni aniqlashdir. Bu orqali tilning ijtimoiy-falsafiy vazifasi, ya’ni axloqiy qadriyatlarni yetkazuvchi vosita sifatidagi roli chuqurroq ochib beriladi.

Asosiy qism

Bugungi kunda global dunyoda turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri nafaqat ijtimoiy-hayotiy sohalarda, balki oilaviy tarbiya jarayonida ham aniq sezilmoqda. Diniy matnlar, xususan, Qur’on, Bibliya, Injil kabi muqaddas kitoblar, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda til vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Har bir jamiyatda ushbu qadriyatlar turli lingvistik strategiyalar orqali avlodlarga yetkaziladi, ularning ongida mustahkamlanadi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy negizi bo‘lgan muqaddas matnlar jamiyatda til orqali hayotga tatbiq etiladi. Til bu yerda oddiy aloqa vositasi emas, balki madaniy, axloqiy va mafkuraviy qiymatlarni kodlovchi ijtimoiy vositadir. Bu g‘oya ilk bor ingliz sotsiologi Basil Bernstein tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u tilni ijtimoiy nazorat va tarbiyaning asosiy mexanizmi sifatida ko‘radi. Uning ta’kidlashicha, “muqaddas matnlar asosidagi diniy nutq, ayniqsa, oilaviy muhitda bolaning axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirishida bosh rol o‘ynaydi”⁸⁶.

Shunga o‘xshash yondashuv amerikalik tilshunos James Paul Gee tomonidan ham ilgari suriladi. U bolalar til vositasida o‘z “asosiy diskurs”ini, ya’ni axloqiy va ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishini ta’kidlaydi. Gee nazariyasiga ko‘ra, diniy nutq – xususan Qur’on Bibliya, Injil oyatlari – bolaning axloqiy ongini shakllantiruvchi kuchli lingvistik resursdir⁸⁷. Bu qarashlar asosida til va muqaddas matnlar uyg‘unligining universalligi e’tirof etiladi.

Osiyodagi tadqiqotlar ham bu fikrlarni tasdiqlaydi. Masalan, malayziyalik olima Nor Hashimah Jalaluddin Qur’ondagi axloqiy ko‘rsatmalar tilining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, diniy nutqning eng muhim jihatlaridan biri “yumshoqlik, ammo qat’iylik” ekanini ko‘rsatgan⁸⁸. Bu uslub ota-onalar tomonidan bola tarbiyasida keng qo‘llaniladi. Jumladan,

⁸⁴ Bernstein, B. (1971). *Class, Codes and Control: Volume I. Theoretical Studies towards a Sociology of Language*. London: Routledge & Kegan Paul.

⁸⁵ Gee, J. P. (1996). *Social Linguistics and Literacies: Ideology in Discourses* (2nd ed.). London: Taylor & Francis.

⁸⁶ Basil Bernstein (1971). *Class, Codes and Control*.

⁸⁷ Gee, J.P. (1996). *Social Linguistics and Literacies*.

⁸⁸ Jalaluddin, N.H. (2019). “Linguistic Features of Qur’anic Ethical Commands.” *Journal of Malay Studies*.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI


Qur’onda ishlatiladigan “Ey o‘g‘lim” (Ya bunayya) kabi murojatlar nafaqat samimiylik va mehrni, balki axloqiy vazifani ham bildiradi.

Markaziy Osiyo kontekstida esa muqaddas matnlarning til vositasidagi axloqiy yuklamasi qadimdan oilaviy tarbiyaning muhim qismi bo‘lgan. Turkman olimi Gurbangeldi Redjepov milliy qadriyatlar va Qur’on asosidagi tarbiyani "sukut, adolat va vijdon" mezonlari bilan bog‘lab o‘rganadi⁸⁹. Unga ko‘ra, til vositasida singdiriladigan qadriyatlar avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston olimlari orasida T. Qurbonova oilaviy tarbiyada diniy-didaktik nutqning ahamiyatini tadqiq etar ekan, unda ishlatiladigan metaforalar, duolar va iboralar orqali bolaning axloqiy dunyoqarashi shakllanishini ko‘rsatib bergan. U: “Qur’on oyatlarida berilgan axloqiy tamoyillar, agar oila muhitida muntazam ravishda tilda ifodalansa, bolada tabiiy ravishda ichki e’tiqod va odob me’yorlariga aylanishi mumkin”, deydi⁹⁰.

Shu bilan birga, so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jamiyatlarda muqaddas matnlarning tarbiyadagi lingvistik strategiyalari yosh va hududga qarab o‘zgaradi. Masalan, O‘zbekiston va AQShdagi shahar va qishloq hududlarida oilaviy tarbiyada diniy nutqning ifodalari va uslubi sezilarli farqlarga ega. Shahar yoshlarida diniy nutq ko‘proq dialogga asoslangan, kamroq qat’iylilik bilan ifodalansa, qishloq joylarda an’anaviy va qat’iyroq "yuqoridan pastga" yondashuv ustunlik qilmoqda⁹¹. Bu esa oiladagi axloqiy qadriyatlarni til orqali shakllantirishda yangi lingvistik strategiyalarni talab qilmoqda va mamlakatlar madaniy kontekstida o‘ziga xosliklar bilan namoyon bo‘ladi.

Shahar va qishloq hududlarida muqaddas matnlardagi ioboralardan foydalanish (O‘zbekiston va AQSH misolida)



⁸⁹ Redjepov, G. (2018). Turkman National Values and Quranic Ethics.

⁹⁰ Qurbonova, T. (2022). “Religious Didactic Discourse in Family Upbringing.” Uzbek Journal of Linguistics.

⁹¹ Smith, J. (2021). “Religious Discourse in Urban and Rural Families.” Journal of Sociolinguistics.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Yuqoridagi diagramma AQSH va O‘zbekistonning shahar va qishloq hududlarida muqaddas matnlardan (Qur’on, Bibliya va Injil kitoblarida mavjud bo‘lgan ibora va so‘zlarning) oilaviy tarbiyada foydalanish darajasini tasvirlaydi. Grafikadan ko‘rinib turibdiki, har ikki mamlakatda qishloq joylarda muqaddas matnlar yuqoriroq foizda qo‘llaniladi. Bu holat qishloq aholisi orasida diniy an‘analar, og‘zaki nasihatlar va ijtimoiy intizomning kuchli saqlanib qolganligini aks ettiradi.

Shahar hududlarida esa, diniy nutq va axloqiy qadriyatlar ko‘proq zamonaviy, dialogga asoslangan yoki muqobil usullar orqali yetkaziladi. Ayniqsa AQSH shaharlari tajribasida Injil va Bibliya nutqi ko‘proq erkin va liberal ruhda ishlatiladi, O‘zbekistonda esa Qur’on asosidagi tarbiya hierarxik va doimiy shaklda davom etadi.

Ushbu diagramma muqaddas matnlarning madaniy, hududiy va sotsiolingvistik ta‘sirini ko‘rsatib, tarbiya jarayonidagi farqlilik va umumiyliklarni yoritishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi diniy matnlarning tarbiyadagi o‘rnini tubdan o‘zgartirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali muqaddas matnlarning qisqa formatlarda, masalan, memlar, qisqa videolar yoki postlar shaklida tarqalishi yoshlar orasida axloqiy qadriyatlarni tezroq va samaraliroq singdirishga yordam beradi⁹². Shu bilan birga, bu yangi lingvistik strategiyalar an‘anaviy uslublar bilan raqobatlashib, oilaviy tarbiyadagi diniy nutqning shakllanishiga yangi yo‘nalishlar qo‘shmoqda.

Ushbu tendensiyalarni chuqur tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish O‘zbekiston va AQSh sharoitida lingvistik tadqiqotlar uchun yangi ilmiy yo‘nalishdir.

AQSh va O‘zbekistonni qiyoslaganda, farqlardan biri — matn tanlovi va ularning lingvistik realizatsiyasida ko‘zga tashlanadi. AQShda Injil asosidagi nutq ko‘proq hikoya va analogiyalar orqali, sokin, erkin muhitda yetkaziladi. O‘zbek oilalarida esa Qur’on asosidagi buyruq-yu duo aralash nutq, mehr bilan uyg‘un bo‘lgan holda, ko‘proq izchil va hierarxik uslubda ifodalanadi. Bu esa madaniyatlararo lingvistik strategiyalarning farqliligini ko‘rsatadi. Biroq umumiy jihat shundaki, har ikkala jamiyatda ham muqaddas matnlar tarbiyaning vositasi sifatida xizmat qiladi. Til bu jarayonda axloqiy me‘yorlarni nafaqat ifodalaydi, balki ularni avlodlar orasida uzatadi. Aynan shuning uchun, lingvomadaniy yondashuv orqali bu qadriyatlarni chuqurroq o‘rganish, taqqoslash va yosh avlodga tushunarli, zamonaviy uslubda yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Til va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik jamiyatning madaniy yadrosini tashkil etadi. Tadqiqotimizda muqaddas matnlar — Qur’on, Bibliya, Injil va boshqa diniy manbalar orqali axloqiy tarbiyaning lingvistik vositalari tahlil qilindi. O‘zbekiston va AQSh jamiyatidagi farqliliklar diniy nutq uslubi, metaforalardan foydalanish, tilning ijtimoiy kontekstda ifodalanishi kabi jihatlarida ko‘zga tashlandi.

⁹² Anderson, L. (2022). “Social Media and Religious Discourse Among Youth.” *New Media & Society*.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Har ikki jamiyatda muqaddas matnlar orqali axloqiy qadriyatlar oilaviy muhitda bola ongiga singdiriladi, bu esa tilni axloqiy me’yorlarni yetkazuvchi kuchli ijtimoiy vosita sifatida tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida Bernstein, Gee, Hess kabi olimlarning nazariyalari asosida tilning axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi roli mustahkamlandi.

Xulosa shuki, muqaddas matnlar lingvistik strategiyalar orqali madaniy qadriyatlarni uzatishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy tarbiya tizimida til vositasida berilayotgan axloqiy tamoyillarni chuqurroq o‘rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bernstein, B. (1971). *Class, Codes and Control: Theoretical Studies Towards a Sociology of Language*. London: Routledge & Kegan Paul.
2. Gee, J. P. (1996). *Social Linguistics and Literacies: Ideology in Discourses*. London: Routledge.
3. Hess, D. (2015). Religious Texts and Moral Development in American Families. *Journal of American Studies*, 49(2), 65–80.
4. Jalaluddin, N. H. (2013). Linguistic Strategies in the Quranic Moral Discourse. *Journal of Islamic Studies*, 24(3), 55–68.
5. Qurbonova, T. (2020). Oila tarbiyasida diniy-didaktik nutqning lingvistik xususiyatlari. *Filologiya masalalari*, 2(7), 112–118.
6. Redjepov, G. (2018). Qur’on va milliy tarbiyada axloqiy qadriyatlarning lingvistik talqini. *Markaziy Osiyo tilshunosligi jurnali*, 3(4), 77–83.
7. Biblegateway.com – Online Bible in English, multiple versions.
Mavjud: <https://www.biblegateway.com>
8. Quran.com – The Noble Qur’an with multiple translations.
Mavjud: <https://quran.com>
9. Christianity.com – Resources on Bible study, Christian living, and theology.
Mavjud: <https://www.christianity.com>

MOTIVATSIYA EMAS, INTIZOM YETISHMAYAPTI: NEGA ORZULAR YONMAYAPTI?



Mamadjonova Gulira’no Muhammad Ali qizi — 2006-yilda Namangan viloyatida tug‘ilgan. Hozirda Toshkent shahridagi Millat Umidi universitetining Ingliz tilini o‘qitish yo‘nalishida 2-bosqich bakalavriat talabasi. U ingliz tilidan B2 sertifikatga ega bo‘lib, adabiyot, tarjima va xorijiy tillarga chuqur qiziqadi.

Gulira’noning birinchi xalqaro maqolasi Misrda chop etilgan “O‘zbekistonni ilhomlantiruvchi ovozlari” nomli to‘plamda e’lon